



IMOM DORIMIY MA'NAVIY MEROSINING ZAMONAVIY
IJTIMOIY ONGNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Kurbonaliyev Ural Xatamovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti Yoshlar masalalari

va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada Imom Abu Muhammad Abdulloh Dorimiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, uning "Sunan" asaridagi axloqiy-ijtimoiy tafakkur tamoyillari, diniy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni va ularning bugungi zamon ijtimoiy ongida tutgan mavqei falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy ong, Dorimiy, ma'naviy meros, hadis, falsafa, shaxs tarbiyasi, zamonaviylik.*

Kirish:

Ijtimoiy falsafa jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslari, shaxs va ijtimoiy ongning o'zaro munosabati, madaniyat va qadriyatlar tizimi kabi tushunchalarni o'rganish orqali insonning ichki dunyosini anglashga intiladi. Bu yo'nalishda tarixiy shaxslarning hayoti va merosi bugungi ong shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular orasida, Imom Dorimiy o'zining chuqur tafakkuri, hadislar to'plami va tafsiriy yondashuvi bilan ijtimoiy ongni ma'rifat yo'li bilan boyitgan buyuk allomalardan biri hisoblanadi. Uning "Sunan" nomli asari orqali keltirilgan diniy-ijtimoiy tamoyillar, axloqiy tartiblar va shaxsiy kamolot haqidagi ko'rsatmalari nafaqat diniy doirada, balki ijtimoiy-falsafiy muhitda ham o'ziga xos nazariy asos bo'la oladi.

Asosiy qism:

Imom Dorimiy o'z asarlarida inson axloqini, ijtimoiy muomalani va jamoat tartibini mustahkamlashga qaratilgan ko'plab hadislarini keltirgan. Uning fikricha, jamiyatning uyg'un rivojlanishi uchun insonlar o'zaro ishonch, hurmat va adolat asosida yashashlari lozim. Bu g'oyalar bugungi zamon ijtimoiy falsafasining asosiy tamoyillari bilan hamohang.[5] Jumladan, Dorimiy hadislarida halollik, adolat, sabr-toqat, muloyimlik, insof va taqvo kabi fazilatlar eng muhim ijtimoiy me'zon sifatida ilgari suriladi. Bu fazilatlar orqali inson nafaqat o'zining shaxsiy kamolotiga, balki jamiyatning barqarorligiga ham hissa qo'shadi. Ayniqsa, Imom Dorimiyning hadislarida yoshlar tarbiyasi, ilmga muhabbat, ustozga hurmat, ota-onaga itoat va yurtga sadoqat kabi g'oyalar alohida o'rin egallaydi.

Imom Dorimiy hadislarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u jamiyatni ongli va axloqli shaxslar bilan barpo etishni maqsad qilgan. Bu esa, bugungi kunda o'ta dolzarb masala bo'lib, globalizm sharoitida o'zligini yo'qotmaslik, ma'naviy immunitetni kuchaytirish, axborot xurujlariga qarshi madaniy va diniy asosda qarshilik ko'rsatish zarurati bilan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bevosita bog'liq. Dorimiyning asarlarida aks etgan hadislar insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu hadislar orqali insonning ahloqiy tanlovi, ijtimoiy mas'uliyati, jamiyat oldidagi burchi yoritiladi.

Bugungi zamon ijtimoiy ongini shakllantirishda Imom Dorimiyning asarlarida uchraydigan tafakkur turlari, ya'ni sabrli, tafakkurli, ilmi va taqvodor shaxs modeli asosiy ideal sifatida ilgari surilishi mumkin. U keltirgan hadislar orqali bu model o'zining universal qamrovini saqlab qolgan holda, zamonaviy ijtimoiy muhitga moslashtiriladi. Bu yerda "ijtimoiy ong" tushunchasi markaziy ahamiyatga ega bo'lib, u jamiyat a'zolarining umumiy axloqiy, diniy, madaniy qarashlarini, me'yori va qadriyatlarini ifodalaydi. Imom Dorimiyning hadislaridagi asosiy fikrlar jamoat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish, adolatni tamoyil qilib olish, ilmga tayanish ijtimoiy ongni shakllantirishda beqiyos manbadir.[4]

Shuningdek, Imom Dorimiyning tafsiriy qarashlari ham bugungi ijtimoiy falsafiy tafakkur uchun muhim asos bo'la oladi. U oyatlar va hadislar tafsirida inson ruhiyati, axloqi, e'tiqodi va amallarining ijtimoiy oqibatlari haqida chuqur mulohazalar yuritadi. U kishining tafsiriy merosi insonga xos tafakkur jarayonini tushunishda ham, axloqiy mezonlarni aniqlashda ham muhim omildir. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, Dorimiy tafakkuri zamonasining muayyan ijtimoiy holatlarini chuqur idrok etgan holda shakllangan bo'lib, uning asarlarida jamiyatning muammolari, axloqiy inqiroz holatlari, ijtimoiy zulm, ilmga befarqlik va jaholatga qarshi qat'iy pozitsiya aks ettirilgan.

Bugungi zamon jamiyati o'z oldiga shunchaki axborotga ega bo'lish emas, balki bu axborotni ijtimoiy foyda yo'lida saralab, to'g'ri qarorlar chiqarishni maqsad qilib qo'yadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Imom Dorimiy hadislaridagi hayotiy masalalarni yechishga qaratilgan donishmandona fikrlar, ijtimoiy munosabatlarda o'zini tutish madaniyatiga oid maslahatlar, xalqni ezgulikka undaydigan chaqiriqlar bugungi axloqiy inqirozga qarshi samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Imom Dorimiy ta'limotining ijtimoiy ongga ta'siri nafaqat umumiy axloqiy mezonlar orqali, balki uning o'zi yashagan davrdagi jamoat institutlariga bergan bahosi, ijtimoiy adolat va rahbarning mas'uliyati haqidagi qarashlari orqali ham namoyon bo'ladi. U jamiyat rahbarlarining mas'uliyatini muqaddas deb bilgan, adolatsizlikni esa eng yomon illatlardan biri deb baholagan. Bu qarashlar bugungi ijtimoiy falsafa uchun yetakchi kontseptsiya vazifasini o'taydi. Chunki hozirgi kunda ijtimoiy adolat, ijtimoiy tenglik va rahbarlik madaniyati kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda[2].

Imom Dorimiyning diniy-falsafiy merosini ijtimoiy ong shakllanishi bilan bog'lab o'rganish, ayni vaqtda madaniy identitetni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Zero, milliy va diniy qadriyatlarining uyg'unlashuvi orqali inson o'zini jamiyatning ajralmas qismi sifatida anglaydi. Dorimiy hadislarida aks etgan tafakkur va axloqiy ideallar yosh avlodning ijtimoiy faolligini, intellektual salohiyatini va milliy o'zligini mustahkamlovchi g'oyalar bilan uyg'unidir.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Imom Dorimiy asarlarida shaxs kamoloti yoʻlidagi toʻsiqlar, yaʼni johillik, nafs, gʻazab, buzucq niyat, kibr kabi illatlarga qarshi kurashish yoʻllari ham aniq koʻrsatib berilgan. Bu esa ijtimoiy falsafa uchun axloqiy inshoot qurishning konseptual modelini beradi. Chunki jamiyatning barqarorligi, aynan shu illatlarga qarshi immunitet hosil qilishda mujassam. Falsafiy nuqtai nazardan bu, ijtimoiy oʻzlikni mustahkamlash jarayonidir. Shaxsning axloqiy fazilatlarlari orqali jamiyat mustahkamlanadi, ijtimoiy ong boyiydi, maʼnaviyat yuksaladi.

Xulosa. Imom Dorimiyning diniy-maʼnaviy merosi faqatgina diniy kontekstda emas, balki ijtimoiy-falsafiy muhitda ham chuqur tahlil qilinishi zarur boʻlgan boy manbadir. Uning hadislar toʻplami va tafsiriy qarashlari zamonaviy jamiyat ongini shakllantirishda, maʼnaviy immunitetni kuchaytirishda va yosh avlodni axloqiy barkamollikka yetaklashda hal qiluvchi omil boʻla oladi. Bu meros, ayniqsa, hozirgi global oʻzgarishlar sharoitida xalq ongini milliy qadriyatlar asosida tiklashda bebaho ilmiy-metodik asosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov A. Tafakkur va maʼnaviyat. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2006. – 212 b.
- 2.
3. Aliev H. Islom falsafasi. – Toshkent: TDSHI, 2011. – 189 b.
4. Zohidov H. Oʻzbek xalqining axloqiy merosi. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2002. – 256 b.
5. Mamajonov A. Milliy ong va maʼnaviy tarbiya. – Toshkent: Muhammad al-Xorazmiy, 2020. – 288 b.
6. Dorimiy A.M. Sunan. – Riyoz: Dorus-Salam nashriyoti, 2000. – 2 t.

